



Tilshunoslikda nostandart til birliklarining o'rganilishi

Xusanova Sharofatxon Isroilovna.

Tel: +998934443570

Annotatsiya: Zamonaviy sharoitda lingvistik ta'limning rivojlanishida, ta'lim muhiti subyektlarining faoliyatini tashkil etishda yangi yondashuvlarni amalga oshirish zaruratini talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tilni o'qitishda leksik birliklarni va ularni muloqot jarayonida qo'llay bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Til tizmi ongli ravishda o'rganiladi, lingvistik bilimlarni egallash barobarida ta'lim tarbiya jarayoni birlashadi. Hozirgi kunga qadar noadabiy leksik birliklar borasida o'zbek tilshunosligida kam sonli ilmiy izlanishlar olib borilgan, ushbu hodisa ingliz va o'zbek tilida qiyosiy aspektida yetarlicha tadqiq etilmagan, bu esa mazkur tadqiqot zaruriyligini ko'rsatadi. Zero, sleng, jargon, argo, dialektizmlar davr ruhi, mazkur davrda jamiyatning tarkibiy qismi bo'lgan insonlarning qiziqishlari, ehtiyojlari haqida ma'lumot bera oladi.

Kalit so'zlar: sleng, jargon, argo, dialektizmlar, ishlatilish doirasi cheklangan va ishlatilish doirasi cheklanmagan leksika, sohalar terminologiyasi sohalar terminologiyasi, fonetik ayirmalar.

Hozirgi o'zbek tilshunosligida nostandart til birliklarining o'rganilishi 20-asrda barcha xalqlar qatori o'zbek xalqi leksikasi ham tezlik bilan o'sib, taraqqiy etdi. O'zbek tili leksikasiga baynalminal so'zlar keng ko'lamda kirib keldi. Buning ustiga fan va turli sohalar terminologiyasi ham to'xtovsiz o'sib bormoqda. O'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam, shuningdek, o'z qatlam tarkibida umumturkiy so'zlar va ulardan yasalgan o'zbekcha so'zlar mavjud. O'zlashma qatlam, arabcha, ruscha-baynalminal so'zlar bor.



Har bir tilning leksik birliklari ishlatilish doirasiga ko'ra bir necha hil tavsiflanadi. O'zbek tilshunosi Sh. Raxmatullayev (Hozirgi o'zbek adabiy tili-. darslik), Jamolxonov (“Hozirgi o'zbek adabiy tili”), Sayfullayeva R va boshqalar (“Hozirgi o'zbek adabiy tili”) fikriga ko'ra Leksemalar ishlatilish doirasi jihatidan avvalo ikkiga guruhlanadi:

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam va
2. Ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam.

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamni barcha o'zbeklar uchun umumiy bo'lgan leksemalar tashkil qiladi. Bu qatlamdagi leksemalar, yashash joyi, kasbi, madaniy saviyasi, jinsi, yoshi va boshqa belgilaridan qat'i nazar, o'zbekcha gapiradigan har bir kishining nutqida ishlatiladi, o'zbek tilida gapiruvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'ladi. O'z-o'zidan, bunday leksemalar kundalik turmushda zarur narsa, belgi kabilarning nomi bo'ladi.

Turkum nuqtayi nazaridan yondashilsa, ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamga butunicha (ba'zi juz'iy istisnolar bilan, albatta) yordamchilar deb nomlanadigan grammatik turkumlarga mansub birliklar kiritilishi lozim. Chunki, birinchidan, bunday birliklar o'zi ko'p emas, har gal shu oz miqdordagi birliklarga murojaat qilinadi. Ikkinchidan, bular asli grammatik vositalar sirasiga kiradi: leksik tomondan ko'ra grammatik tomon ustun turadi, bu hol ularning umumiy va zururiy bo'lishini ta'minlaydi. Undovlar ham ishlatilish doirasi jihatidan grammatik turkumlar qatori baholanadi.

Mustaqil turkumlardan son leksemalar va olmosh leksemalarning deyarli barchasi ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralanmagan. Qolgan turkumlarda (ot, sifat, fe'l, ravish, shuningdek modal birliklarda) har bir leksema alohida yondashib baholanishi kerak. Dialektlarga ko'ra voqe bo'ladigan ba'zi fonetik ayirmalarni hisobga olmaganda (chunki bu leksemalar adabiy tilda yagona talaffuz me'yoriga bo'ysunadi), ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamga *ko'z-*, *qo'l-*, *oyoq-*, *bilak-*, *tirsak-*, *yaxshi-*, *yomon-*, *qora-*, *sariq-*, *ko'k-*, *kel-*, *ket-*, *o'tir-*, *tur-*, *yur-*, *tez-*, *sekin-*, *erta-*, *kech-* kabi juda ko'p misollar keltirish mumkin. Hozirgi adabiy o'zbek tili leksik boyligining asosini xuddi shunday leksemalar tashkil qiladi.

Ishlatilish doirasi cheklangan birliklar nafaol so'zlar ham deyiladi. Atamalar,



shevaga xos soʻzlar, kasb-hunarga oid soʻzlar, eskirib qolgan soʻzlar, neologizmlar, jargon soʻzlar, dialektal soʻzlar va shu kabi barcha uchun birdek tushuncha ifodalamaydigan soʻzlar nafaol soʻzlardir. Asosan ogʻzaki nutq jarayonida ijtimoiy guruhlar yoki professional guruhlar (koʻpincha sunʼiy, yashirin yoki shartli) faqat oʻzlari uchun tushunarli boʻlgan koʻp sonli soʻzlar va iboralardan foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbek va ingliz tillari leksikasini Sistema sifatida tadqiq etishda uni mazmuniy maydonlarga boʻlish, mazmuniy maydonlarning oʻzaro va har birining ichki elementlari munosabatlarini yoritish muhim. Til sistemasida leksikaning tarkibiy qismlarga yaʼni uslublarga boʻlib oʻrganish ham alohida oʻrin tutadi.

Ingliz va oʻzbek tillarida leksika turli hil tasniflanadi va maʼlum bir farqlar mavjud. Masalan; oʻzbek tilida bu soha boʻyicha izlanishlar 20-asrda eng samarali hisoblanadi. Sh. Raxmatullayev, Jamolxonov, Sayfullayeva bu xususda ish olib borib, leksikani 2guruhga: ishlatilish doirasi cheklangan va ishlatilish doirasi cheklanmagan leksikaga ajratilgan boʻlsa, ingliz tilida ular rasmiy, norasmiy, soʻzlashuv uslubiga xos soʻzlarga ajratiladi. Lekin bu turlar zahirida aynan isteʼmoli cheklangan leksika tarkibi har ikkala tilda ham deyarli bir hil. Yaʼni isteʼmoli cheklangan leksika oʻz ichiga slang, dialektizmlar, jargon, argo, professionalizmlar, vulgar soʻzlarni oladi. Bu jihatdan ularda farq sezilmaydi. Ishlatilish doirasi cheklangan leksika muayyan xalqning milliyligi, urf-odati, madaniyati, turmush-tarzi ifodalovchi til tizimidagi muhim lugʻaviy vositalar boʻlib, tilni til egasi bilan bogʻliqlikda tahlil qilish gʻoyasiga asosan ularni oʻrganish, shu xalq madaniyati, maʼnaviyati haqida muhim xulosalarga kelish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ular muayyan tilda soʻzlashuvchi xalq orasidagina, maʼlum guruh yoki kasb egalari uchunгина xos boʻlgan va faqat ulargagina tushunarli boʻlgan soʻzlardir, tilning ifoda imkoniyatlarini, til egalarining his-tuygʻularini, maʼnaviy olamini namoyon etuvchi lugʻaviy birliklardir.

Ishlatilish doirasi cheklangan leksika va ularning mohiyati nutq jarayonida soʻz ifodasidagi milliy xoslanganlikni vujudga kelishi bilan belgilanadi. Ularning baʼzilar vaqt oʻtishi bilan adabiy tilga, yaʼni ishlatilish doirasi cheklanmagan leksikaga aylanishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, Oʻzbek va ingliz tillari leksikasini Sistema sifatida tadqiq



etishda uni mazmuniy maydonlarga bo'lish, mazmuniy maydonlarning o'zaro va har birining ichki elementlari munosabatlarini yoritish muhim. Til sistemasida leksikaning tarkibiy qismlarga ya'ni uslublarga bo'lib o'rganish ham alohida o'rin tutadi.

Ingliz va o'zbek tillarida leksika turli hil tasniflanadi va ma'lum bir farqlar mavjud. Masalan; o'zbek tilida bu soha bo'yicha izlanishlar 20-asrda eng samarali hisoblanadi. Sh. Raxmatullayev, Jamolxonov, Sayfullayeva bu xususda ish olib borib, leksikani 2guruhga: ishlatilish doirasi cheklangan va ishlatilish doirasi cheklanmagan leksikaga ajratilgan bo'lsa, ingliz tilida ular rasmiy, norasmiy, so'zlashuv uslubiga xos so'zlarga ajratiladi. Lekin bu turlar zahirida aynan iste'moli cheklangan leksika tarkibi har ikkala tilda ham deyarli bir hil. Ya'ni iste'moli cheklangan leksika o'z ichiga slang, dialektizmlar, jargon, argo, professionalizmlar, vulgar so'zlarni oladi. Bu jihatdan ularda farq sezilmaydi. Ishlatilish doirasi cheklangan leksika muayyan xalqning milliyligi, urf-odati, madaniyati, turmush-tarzini ifodalovchi til tizimidagi muhim lug'aviy vositalar bo'lib, tilni til egasi bilan bog'liqlikda tahlil qilish g'oyasiga asosan ularni o'rganish, shu xalq madaniyati, ma'naviyati haqida muhim xulosalarga kelish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ular muayyan tilda so'zlashuvchi xalq orasidagina, ma'lum guruh yoki kasb egalari uchunгина xos bo'lgan va faqat ulargagina tushunarli bo'lgan so'zlardir, tilning ifoda imkoniyatlarini, til egalarining his-tuyg'ularini, ma'naviy olamini namoyon etuvchi lug'aviy birliklardir.

Ishlatilish doirasi cheklangan leksika va ularning mohiyati nutq jarayonida so'z ifodasidagi milliy xoslanganlikni vujudga kelishi bilan belgilanadi. Ularning ba'zilar vaqt o'tishi bilan adabiy tilga, ya'ni ishlatilish doirasi cheklanmagan leksikaga aylanishi mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.- 199 b
2. Otamirzayeva S, Yusupova M .O'zbek tili. – Toshkent: 2004.
3. Rajabov.N.N. O'zbek va ingliz tillarida vokalizm sistemasining fonologik jixatdan chog'ishtirma tadqiqi. – Toshkent: 2018.
4. Raxmatullayev. Sh .Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: 2006. -83-87b.
5. Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: 2005. – 143b.
6. G'ofurov I, Mo'minov O', Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma . –Toshkent : Tafakkur-Bo'stoni, 2012. – 216 b.
7. Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: 1985. – 14 б.
8. Султонов М. Тилшуносликнинг ноадабий қатламларида сленг сўзлар. – Toshkent : Тил ва адабиёт таълими, 2007. – 18б.
9. Турсунов У, Мухторов А, Раҳматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 150б.
10. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 131 б .
11. Қиличев Э. Узбек тилининг практик стилистикаси. Пед. ин-нинг фйлол. фак. студ. учун ўқув-қўлл.— Т: Уқитувчи, 1985.— 104 б.